

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

RAXMATOV XAYRULLA BOZORBOYEVICH

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA
ETNIK JARAYONLARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TAHLILI

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)

Raxmatov Xayrulla Bozorboyevich

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida etnik jarayonlarning tarixiy-geografik tahlili 5

Рахматов Хайрулла Базарбаевич

Историко-географический анализ этнических процессов в Бухарском эмирате в конце XIX – начале XX веков 25

Rakhmatov Khayrulla Bazarbaevich

Historical-geographical analysis of the ethnic processes in the emirate of Bukhara at the end of the 19th century – at the beginning of the 20th century.. 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 55

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

RAXMATOV XAYRULLA BOZORBOYEVICH

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA
ETNIK JARAYONLARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TAHLILI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.2.PhD/Tur1125 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filialida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshov Boxodir Jurayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentalar:

Xudoyqulov To'liqin Do'stoboyevich
tarix fanlari doktori, dotsent

Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich
tarix fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Gulliston davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05-raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil " 21 " 10 soat 11⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (207 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil " 3 " 10 kuni tarqatildi
(2023-yil " 3 " 10 daqiqa 22 raqamli reyestr bayonnomasi).



G.E. Mo'minova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o'rinbosari,
t.f.d., professor



N.N. Rajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
t.f.n., dotsent



Yu.A. Ergasheva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Hozirgi davr globallashtirish sharoitida jahon miqyosida aholi sonining shiddat bilan ko'payishi, aholi etnik tarkibining o'zgarib borishi kuzatilmoqda. Shuning uchun ham aholi joylashuvi tarixiy geografiyasining kengayib borishi, aholi etnik tarkibining ijtimoiy munosabatlarga ta'siri masalalarini tadqiq etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, jahonning turli mintaqalarida yashovchi aholining etnik o'zligini anglash, turli lahjalarda so'zlashuvchi etnik guruhlar tarkibini aniqlash, ayrim mintaqalarda yashovchi turli etnoslar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy aloqalar masalalarining yechimi jahon tarixshunosligida muhim o'rin egallaydi.

Dunyodagi yetakchi ilmiy muassasalar, qator mamlakatlar, jumladan, AQSh, Xitoy, Rossiya, Fransiya, Germaniya, Polsha kabi davlatlarning ilmiy muassasalarida Markaziy Osiyo tarixi muhim iz qoldirgan Buxoro amirligida kechgan tarixiy-madaniy jarayonlarni o'rganish bo'yicha samarali izlanishlar olib borilmoqda. Natijada amirlikning tarixi va madaniyati bo'yicha qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritilmoqda. Shunga qaramasdan, Buxoro amirligining XIX-XX asr boshlaridagi etnik jarayonlarning tarixiy-geografik tahlili masalalarini tadqiq etish hamon muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda madaniy merosga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib qadimgi va o'rta asrlar tarixiy-madaniy viloyatlari tarixi va madaniyatini yanada chuqurroq tadqiq etish dolzarb vazifaga aylandi. Xususan, so'nggi o'rta asrlar davri Buxoro amirligining tarixiy, siyosiy-ma'muriy birliklarida kechgan etnik jarayonlarni tarixiy-geografik kontekstida tahlil etish ham muhimdir. Ushbu masalalar bugungi kunda tarix fani oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda va ma'lum yutuqlarga erishildi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "... Ijtimoiy-gumanitar fanlar – tarix, arxeologiya, sharqshunoslik, O'zbekiston xalqlarining madaniy merosi... va boshqa sohalarda ham salmoqli natijalarga erishilmoqda"¹.

Mazkur dissertatsiya ishi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022/2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-son "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари Ватанимиз равнакига хизмат қилсин // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: "O'zbekiston" NMJU, 2018. – Б. 169.

Muammoning o'rganilganlik darajasi². Tadqiq qilinishi mo'ljallanayotgan muammo bo'yicha yozilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, adabiyotlarda bu masala mustaqil obyekt sifatida to'laqonli ravishda yoritilmagan, ammo mavzuning ayrim jihatlarini tarixiy adabiyotlarida o'z aksini topgan bo'lib, ularni davriy jihatdan quyidagi to'rt asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. XIX asr – XX asr boshlarida chop etilgan nashrlar.
2. Sovet davri adabiyotlari.
3. Mustaqillik davri tadqiqotlari.
4. MDH va xorijiy tadqiqotlar.

Shuni alohida qayd etish lozimki, bu adabiyotlar ilmiy-uslubiy va konseptual jihatdan ham farqlanadi.

Buxoro amirligining XIX-XX asr boshlaridagi etnik jarayonlarning tarixiy-geografiyasiga oid ayrim ma'lumotlar Rossiya imperiyasi ma'muriyati vakillari bo'lgan N.V.Xanikov, A.D.Grebenkin, A.P.Xoroshxin, Yu.Skayler va boshqalarning asarlarida tadqiq etilgan. Amirlik aholisining xo'jalik, shuningdek, madaniy hayotiga doir ma'lumotlar ayrim rus sharqshunoslari asarlarida umumiy holatda bayon etiladi³.

O'lkamizdagi ikki buyuk daryo Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi kengliklarda dehqonchilik vohalari, ulkan dasht, cho'l va qumliklar tog' tizmalari bilan aralash joylashgan. Vohalarda ko'p asrlar avval boshlangan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining o'troqlashuvi hamda o'troq dehqonchilik aholisi bilan aralashuvi XIX asrning oxiri – XX asrning boshida tezlashadi⁴.

Nurota tog'larining shimoliy qismida bo'lgan rus tadqiqotchisi A.P.Xoroshxin shunday yozadi: "... Nurota tog'lari daralarida ko'plab qishloqlar, qishlovlar mavjud. Qishlovlardagi o'zbeklar bahordan kech kuzgacha yaylovda yashab, ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanadi. Bog'donota volostidagi ko'kbuloqlik va qo'shni qishloqda yashovchi cho'pon bizga yaylovlar tanqis bo'lganida 25-martdan mollarini tog'ga haydab chiqqanliklarini aytdi. Nurek qishlog'i aholisi qoramang'it o'zbeklari dehqonchilik, bog'dorchilik, qisman chorvachilik bilan shug'ullanadi. Don va jun Jizzaxda sotiladi. Nurekliklar o'zlarini Turkistondan ko'chib kelgan, deb hisoblaydilar. Nurekdan Uchmagacha 26 chaqirim tog' yaqinidan o'tgan yo'l tekis bo'lmay, ba'zan toshlar ustidan o'tiladi. Yangiqishloq va Bog'donotagacha uni Osmonsoy, Ilonchisoy, Kulbasoylar kesib o'tadi. Daradan bog'lar, soylar nomi bilan atalgan qishloqlar ko'rinib turadi. Yangiqishloqda Buxoro amirining qabiladoshlari mang'itlar yashaydi. Bu joydan shimolga qaralsa, Tuzkon ko'rinadi. Uchma qishlog'ida o'zbek naymanlar joylashgan. Balaban, Sasiq, Safarota, Qamish va Sarimsoqli qishloqlarida joylashgan aholi: nayman, oltibek, o'zbek turkmanlardir. Sarimsoqlida oltibeklardan tashqari qishloqning yarmini xo'jalar tashkil qiladi. Aytishlaricha, ular bu yerga Safarotadan kelgan. Forish, Asrof,

² Matn ichida mavzuga doir u yoki bu darajada tadqiqot olib borgan mualliflar asarlariga batafsil murojaat etganimiz uchun bu yerda qisqacha ma'lumot berishni lozim topdik (muallif).

³ Grebenkin A.D. Таджики. Узбеки. / Русский Туркестан. Сборник. – М., 1873. – 120 с.; Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб, 1843. – 192 с.; Хорошхин А.П. Сборник статей касающихся Туркестанского края. СПб, 1876. – 304 с.; Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Гулжага саёхат кайдлари. З.Саидбобоев таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 334 б.

⁴ Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. 1-жилд. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарк, 2000. – 466 б.

Sintob qishloqlari aholisi tojikcha so‘zlashadi. Qozining aytishicha, aholi tojikcha so‘zlashsa-da, o‘zlarini saroylardan deb biladi. Rivoyatga ko‘ra, ular Ichkali Zori shahridan ko‘chib kelganlar. Qozining aytishicha, Sintob aholisi tosh qo‘rg‘onni bundan 40 yilcha avval O‘ratepa begi qirq-yuzlar sardori Abdulg‘affor qo‘shini hujumini qaytarish uchun qurganlar”⁵.

Tadqiq etilayotgan davr va mavzuga oid tarixiy voqealarga baho berishga xizmat qiluvchi sovet davri manbalari ko‘p qirrali yondashuvlarga egaligi bilan ajralib turadi. Biroq sovet tuzumining mustahkamlanib borish jarayoni, ayniqsa, ilm-fan sohasiga yagona mezon sifatida markscha-lenincha ta‘limotning qabul qilinishi tarixiy jarayonlarga berilgan holatlarning soxtalashtirilishiga olib kelgan. Shunga qaramay, ular mavzuni yoritishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Buxoro amirligi, xususan, uning Zarafshon vodiysi qismi etnotoponomikasiga e‘tibor qaratgan ilmiy izlanishlarning katta bir qismi sovet davri tarixshunosligiga to‘g‘ri keladi. Aslida voha etnotoponomikasini ilmiy jihatdan tadqiq etishda dastlab V.V.Bartold, A.L.Xromov, X.Ismailov, O.A.Suxareva, N.N.Burikina, M.M.Izmaylova, A.P.Fomchenko va B.X.Karmisheva kabi tadqiqotchilar Buxoro amirligi va Janubiy O‘zbekiston hududi etnik qiyofasini o‘rganish jarayonida Zarafshon vohasiga birmuncha to‘xtalib o‘tganlar⁶.

Buxoro amirligidagi etnik jarayonlarni yoritishda sovet davri tadqiqotchilari dastlabki yillarida Buxoro shahri va yana bir qator shaharlarni o‘rgangan O.A.Suxareva esa o‘z tadqiqotlarida asosiy diqqat-e‘tiborini Samarqand, Buxoro shaharlarining topografiyasi va demografik jihatlari, shuningdek, mazkur shaharlar aholisining etnik tarkibi, hunarmandchiligi, ijtimoiy-madaniy hayotiga e‘tibor qaratgan bo‘lib, ayniqsa, bu masalada tadqiqotchining Buxoro shahriga ancha keng to‘xtalgani diqqatga sazovordir. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, XX asrning ilk choragida Buxoro aholisining etnik tarkibi xilma-xillik kasb etib, shahar aholisining asosiy ko‘pchiligini tojik tilli o‘zbeklar tashkil etgan va turli kasblar bilan shug‘ullanganlar.

Zarafshon vohasining, xususan, ushbu vohaning yuqori qismi toponimiyasi A.L.Xromov tomonidan maxsus o‘rganilgan bo‘lib, tadqiqotchi tog‘lik hududlardagi yuzlab joy nomlari (qishloq, mavze, gidronim, oronim va h.k.)ni tarixiy etimologik jihatdan tahlil qilgan⁷.

Buxoro amirligining janubi-sharqiy qismlarida (bugungi O‘zbekistonning janubiy hududlari va Tojikiston) etnografik tadqiqotlar olib borgan B.X.Karmisheva o‘z ilmiy ishlarida Zarafshon vohasi etnik holatiga ham to‘xtalib o‘tgan⁸. Xususan,

⁵ Хорошхин А.П. Сборник статей касающихся Туркестанского края. – СПб, 1876. – С. 84-87.

⁶ Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии // Сочинения. Т. II. Ч. 2 – М.: Наука, 1964. – 194 с.; Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – М.: Наука, 1966. – 220 с.; O‘sha muallif Kwartalnaya obshchina pozdnefeodal’nogo goroda Buxary (v svyazi istoriyei kvartalov). – М.: Наука, 1976. – 370 с.; Фомченко А.П. Русские поселения в Бухарском эмирате. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1958. – 76 с.; Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – М.: Наука, 1976. – 298 с.

⁷ Хромов А.Л. Очерки топонимии и микропонимии Таджикистана. Вып. 1. – Душанбе: Ирфон, 1975. – 85 с.; Ўша муаллиф. Тюркские названия в микропонимии Ягноба // Известия АН Тадж. ССР. ООИ. – Душанбе, 1967. – № 3 (49). – С. 78-81.

⁸ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – М.: Наука, 1976. – 298 с.

tadqiqotchining janubiy hududlardagi o‘zbek urug‘larini o‘rganish mobaynida ularning Zarafshon vohasi o‘zbeklari bilan qon-qarindoshlik rishtalari mavjudligini ta’kidlab o‘tgan e’tiborga molik. B.X.Karmishevaning qo‘ng‘irot, qang‘li, juz kabi o‘zbek urug‘larining bir qismi Zarafshon vohasida ham istiqomat qilishi va o‘tmishda ular orasida o‘zaro aloqalar bo‘lganligi haqida qayd etgan ilmiy ma’lumotlari sovet davri etnografiyasida qo‘lga kiritilgan ilmiy yutuqlardan biri edi. X.Ismoilov esa Qashqadaryo vohasi arablarining kiyim kechagi an‘analari haqidagi tadqiqotlarni olib borgan⁹. Xuddi shunday N.Burikina va M.Izmaylovalarning tadqiqotlari ham Buxoro viloyatining Jugar hamda Qashqadaryo viloyatining Jeynov arablari tarixi bo‘yicha muhim ma’lumotlar beruvchi manba hisoblanadi¹⁰.

Buxoro amirligi aholisining tarkibi, xonlikdagi etnik jarayonlar natijasi bo‘yicha muayyan tasavvurlar hosil qilish uchun mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlarga murojaat qilish kerak bo‘ladi. Buxoro amirligining markaziy hududlari – Buxoro vohasi, Karmana va Nurota viloyatlari hamda bir vaqtlar amirlikka qarashli bo‘lgan Samarqand viloyatining g‘arbiy qismlari – Ziaddin (Ziyovuddin) bekligi aholisining etnik tarkibi, tarixiy-geografik joylashuvi va bu hududlardagi etnik jarayonlar, ushbu hududlar etnotoponimlarning o‘ziga xos xususiyatlari S.Qorayev, U.To‘ychiyev, A.Malikov, Sh.Eshonqulov ishlarida anchagina keng tahlil qilingan¹¹. Shuningdek, P.Ravshanov, O.Jo‘raqulov, T.Nafasov, O.Bo‘riyev, R.Rajabov, A.Qayumov, Sh.Iskandarov, M.Usmonov kabi tadqiqotchilar asosan o‘tgan asrlarda mamlakatimizning janubiy viloyatlaridagi etnik holatga to‘xtalgan bo‘lib¹², ularning ishlarida keltirilgan o‘nlab atamalar (etnonimlar, etnotoponimlar, patronimlar va h.k.) XX asr ilk choragida Buxoro amirligining markaziy viloyatlari,

⁹ Исмаилов Х. Традиционная одежда арабов Кашкадарьинской области Узбекской ССР // Костюмы народов Средней Азии. – М.: Гл. ред. восточ. Лит-ры, 1979. – 301с.

¹⁰ Бурькина Н.Н., Измайлова М.М. Некоторые данные по языку арабов кишлака Джугары Бухарского округа и кишлака Джейнау Кашкадарьинского округа Узбекской ССР / Записки коллегии востоковедов. Т. 5. – Л., 1930. – С. 539-549.

¹¹ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 140 б.; О‘sha muallif. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари / Масъул муҳаррир: А. Мухаммаджонов. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 210 б.; Туйчиев У. История расселения народов Узбекистана (по данным топонимии Зарафшанской долины): Автореф... канд. дисс. истор. наук. – Ташкент, 1990. – 24 с.; Туйчиев У. Этнонимы генеалогии этнографической группы «каракалпак» в топонимии Зарафшанской долины // Материалы конф. проф-преп. состава ТОГПИ. – Ангрен, 1980. – С. 78-80; Маликов А. Из истории кунгратов Среднеазиатского междуречья // Сб. мат-лов Междунар. науч. конф. Алматы, 21-23 ноября 2007 г. / Под редакцией Л.Е.Масановой, Б.Т.Жанаева. – Алматы: Дайк-Пресс, 2008. – С. 170-180; Маликов А. Родо-племенная организация и этнические компоненты узбеков группы кунграт долины Зерафшана // “Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари” мавзuidaги IV Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент – Наманган, 2007. – Б. 82-87; Маликов А. Узбеки группы «сарай» долины Зерафшана в XIX – начале XX вв. // Вухоро davlat universiteti ilmiy axboroti, 3-son, 2007. – С. 3-10; Эшанкулов Ш. XX аср Зарафшон воҳаси аҳолисининг этник таркиби (топонимик материаллар асосида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 67 б.

¹² Жўрақулов О. Қашқадарё мангитлари. – Тошкент: Фан, 1992. – 156 б.; Ўша муаллиф: Чандир туркманлари. – Тошкент: Фан, 1993. – 162 б.; Саидов М., Равшанов П. Жейнов тарихи. – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашр, 1996. – 264 б.; Равшанов П., Ўроқов Р. Аждодларимиз қадри. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 110 б.; Равшанов П. Пўлати тарихи. – Тошкент: Янги нашр, 2018. – 276 б.; Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент, 1985. – 194 б.; О‘sha muallif. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. I. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – 234 б.; О‘sha muallif. Қашқадарё кишлокномаси. – Тошкент: Мухаррир, 2009. – 405 б.; Бўриев О., Усмонов М. Ўзбеклар: этник тарихи ва этномаданий жараёнлар. – Самарқанд, 2008. – 233 б.; Ражабов Р. Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси. – Тошкент: Шарқ, 2012. – 415 б.; Каюмов А. Этническая ситуация на территории Южного Узбекистана в XIX – нач. XX века (по материалам Сурхан-Шерабадской долины. Автореферат дисс.кандист. наук. – Тошкент: Институт Истории Академ Наук Республики Узбекистан, 2011. – 34 с.; Искадаров Ш. Ўзбекистон араблари: аъналар ва трансформацион жараёнлар. – Тошкент: Yangi nashr, 2017. – 176 б.

xususan, Zarafshon vodiysi va Janubiy O‘zbekistondagi ayrim joy nomlarining aynan etnotoponimi yoki aksinchaligi masalasini aniqlashda amaliy yordam beradi. Janubiy O‘zbekistondagi etnotoponimlar masalasi asosan T.Nafasovning ishlarida birmuncha keng tahlil qilinib, tadqiqotchi o‘zi yaxshi bilgan ushbu hudud aholisi bilan bog‘liq yuzlab etnik nomlarni ilm ommasiga tanishtirgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, etnik jarayolar masalasida A.Qayumov ko‘proq Surxon vohasiga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, O.Bo‘riyev, M.Usmonovlar Qashqadaryo vohasidagi etnik xususiyatlarni o‘rganib chiqishgan. Xususan, M.Usmonov janubiy viloyatlar etnik xususiyatlarini o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i misolida ko‘rib chiqqan¹³.

Aytib o‘tish kerakki, Zarafshon vodiysining janubiy qo‘shnisi bo‘lmish Qashqadaryo vohasi va nisbatan yaqin hududda joylashgan Surxondaryo vohalaridagi etnotoponimlarning katta bir qismi o‘rganilayotgan hudud etnotoponimikasi bilan yaqin o‘xshashlikka ega¹⁴. Jumladan, Boysun tog‘lari va atroflari, shuningdek, Qashqadaryo vohasidagi Dehqonobod va Qamashi tumanlarida o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i bilan aloqador o‘nlab etnotoponimlar¹⁵ Zarafshon vodiysida uchraydi. Shunga o‘xshash nayman, saroy, uyshun, qushchi, ming kabi bir qator urug‘ nomlari bilan ataluvchi aholi maskanlari har uchala vohada uchraydi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi aholisining etnik tarkibi, turli elat va urug‘larning joylashuv geografiyasi va etnik jarayonlar masalasi xorijda ham birmuncha o‘rganilgan bo‘lib, Y.Bregel, Anke fon Kyugelgen va boshqalarning ishlarida bu masala nisbatan kengroq tahlil qilinganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, tarixchi va sharqshunos olim Y.Bregel mintaqa xalqlari tarixini tadqiq etar ekan Buxoro amirligi hududidagi o‘zbek va turkman urug‘larining joylashuvini alohida xaritada ko‘rsatib, amirlik doirasida yuz bergan etnik jarayonlarni qisqacha tahlil qilgani ko‘zga tashlanadi¹⁶. Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rgangan Anke fon Kyugelgen esa mang‘it urug‘i vakillarining hokimiyat tepasiga kelishi, ular bilan ittifoqchi o‘zbek urug‘lari masalasiga to‘xtalib o‘tadi¹⁷. M.Yanesning tadqiqoti Sankt Peterburg muzeyida saqlanayotgan materiallar orqali Qashqadaryo viloyati arablari tarixi va madaniyatini o‘rganganligi bilan ahamiyatlidir¹⁸.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar kafedrasining “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida etnik jarayonlarning tarixiy-geografik tahlili” mavzusi doirasida bajarilgan.

¹³ Усмонов М.Ш. Жанубий Ўзбекистон кўнғиротлари (XIX аср охири – XX асрнинг биринчи ярми, тарихий-этнологик таҳлил). дисс.тар.фан.фал.докт. – Тошкент, 2018. – 183 б.

¹⁴ Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари (тасниф, текстлар ва луғат). – Тошкент: Фан, 1969. – 210 б.

¹⁵ Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент, 1985. – Б. 80; Туйчиев У. История расселения народов Узбекистана (по данным топонимии Зарафшанской долины): Автореф... канд. дисс. истор. наук. – Тошкент, 1990. – 24 с.

¹⁶ Bregel Y. An Historical Atlas of Central Asia / Handbook of Oriental Studies. Vol. 9. – Brill, Leiden-Boston, 2003. – 109 p.; O‘sha muallif. Брегель Ю. Хорезмские туркмены в XIX веке. Часть II. – М.: Восточная литература, 1961. – 441 с.

¹⁷ Kügelgen A. Die Legitimierung der mittelasiatischen Mangitendynastie in den Werken ihrer Historiker: (18-19. Jahrhundert). – Würzbur: Ergon-Verl., 2002. – 500 p.; O‘sha muallif. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). [Часть 1]. Алматы: Дайк-пресс, 2004. – 516 с.

¹⁸ Янес М.А. Материалы музейных, библиотечных и архивных собраний Санкт-Петербурга как источник по истории и этнографии арабов бассейна Кашкадарьи (Узбекистан): Автореф. дис... канд. ист. наук. – СПб, 2010. – 34 с.

Tadqiqotning maqsadi. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi etnik jarayonlarni tarixiy-geografik o‘rganish kontekstida ilmiy tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining etnik va geografik jarayonlarning mazmun-mohiyatini yoritib berish;

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining siyosiy-ma’muriy tuzilishi va etnik tarkibini tarixiy ma’lumotlar asosida ko‘rsatib berish;

O‘zbekistonda etnik guruhlarining madaniyati va joylashuvi masalalariga milliy ziyolilarning yondashuvini aniqlash;

O‘rganilayotgan davrda Buxoro amirligidagi etnik o‘zlikni anglash masalalarini qiyosiy tahlil etish;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi etnik jarayonlarning tarixiy-geografik jihatdan tahlillar doirasiga tortish;

XIX asrning so‘ngi choragi – XX asr boshlarida Buxoro vohasidagi siyosiy-ma’muriy birliklar aholisi haqida ma’lumotlar berish;

O‘rganilayotgan davr Qashqadaryo, Surxondaryo, Sharqiy Buxoro va Amudaryoning o‘rta havzasi siyosiy-ma’muriy birliklaridagi etnik jarayonlarni tadqiq etish;

Buxoro amirligi aholisi etnik tarkibining o‘ziga xosligi, turmush tarzi turlicha bo‘lgan (o‘troq, yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi) etnoslarning voha bo‘ylab joylashuv xususiyati va XX asrning birinchi yarmi davomida etnik tarkibda kuzatilgan konsolidatsiya va assimilyatsiya jarayonlari ilmiy nazariy qarashlar tahlili asosida ochib berish;

Yarim o‘troq etnik guruhlarining o‘troqlashish jarayoni natijasida, ular turmush tarzining o‘zgarib borishi va xo‘jalik-madaniy tiplarning nisbati masalalari o‘rganish, ushbu jarayonga ta’sir o‘tkazgan omillarni tahlil etish;

Amirlik aholisining dehqonchilik va chorvachilik faoliyati doirasidagi o‘zaro xo‘jalik-madaniy munosabatlari natijasida o‘ziga xos etno-lokal hususiyatlarining shakllanish jarayoni ochib berish;

Voha turli xil etnoslari madaniyatining o‘zaro munosabati va ta’siri, shuningdek, madaniy unifikatsiya va uning natijasida etnohududiy madaniyatning shakllanishi jarayonlari tahlil etish.

Tadqiqotning obykti sifatida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi etnik jarayonlarni tarixiy-geografik tahlil etish belgilab olindi.

Tadqiqotning predmetini o‘rganilayotgan davr Buxoro amirligidagi etnik jarayonlar, etnik o‘zlikni anglash, tarixiy geografik tahlillar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, haqqoniylik, xolislik, qiyosiy tahlil, o‘zaro aloqadorlik, tizimlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining ma’muriy tizimidagi bekliliklar, amlokliklar, amirlikning turli hududlaridagi etnotoponimlar, aholining etnik tarkibi forsiy, turkiy va rus tillardagi manbalar va statistik ma’lumotlar asosida

aniqlanib, bu davrda amirlikda turkiy (o‘zbek)cha etnotoponimlar ko‘pchilikni tashkil etishi dalillangan;

O‘rganilayotgan davrda Buxoro amirligidagi etnik o‘zlikni anglash masalalari hamda yirik etnik guruhlar (mang‘it, qo‘ng‘irot, barhin, kenagas, saroy, nayman, qushchi, burqut, qarluq, barlos, do‘rman va b.lar)ning geografik joylashuvi, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining o‘troqlashuvi va yangi aholi maskanlarining tashkil topish jarayonlari amirlikdagi viloyatlar misolida ochib berilgan;

Buxoro amirligi mahalliy aholisi bo‘lgan o‘zbek, tojik, turkman va qozoqlarning amirlik bo‘ylab tarqalish geografiyasi aniqlanib, ularning nisbati qaysi hududlarda ko‘p yoki oz ekani, ular bilan bog‘liq etnotoponimlar tog‘, tog‘oldi, dasht hamda suv havzalarining qay birida ko‘proq uchrashi isbotlangan;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro, Qashqadaryo va Surxon vohalari hamda Sharqiy Buxoro va Amudaryoning o‘rta havzasidagi siyosiy-ma‘muriy birliklar aholisining turli-tumanlik kasb etishida so‘nggi o‘rta asrlarda asosan o‘zbek urug‘larining, qisman esa turkman urug‘larining yoppasiga o‘troqlasha boshlagani o‘z ta‘sirini ko‘rsatgani aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar:

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi etnik jarayonlarni tarixiy-geografik tahlili haqidagi ma‘lumotlar manbalar va statistik hujjatlarga asoslangan holda ochib berilgan.

Tadqiqotga jalb etilgan XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Buxoro amirligidagi etnik o‘zlikni anglash masalalari yirik etnik guruhlar (mang‘it, qo‘ng‘irot, barhin, kenagas, saroy, nayman, yuz, qipchoq, xitoy, burqut, qarluq, barlos, do‘rman, ming, yuz (juz), qirq, batosh, va h.k.lar) misolida talqin qilinib, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, assimilyatsiya jarayonlari hamda etnik guruhlarning ijtimoiy munosabatlaridagi an‘anaviylik hamda yangiliklar ko‘rsatib berilgan, amirlikda yashovchi aholi tarkibi va etnotoponomik tarixi o‘rganilib, ular joylashuvining tarixiy geografiyasi tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada tarix fanida tan olingan nazariy yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, bevosita O‘zbekiston milliy arxivi, Buxoro va Samarqand viloyatlari davlat arxiv jamlanmalari, birlamchi manbalar, mavzuga yaqin yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardagi fikr va mulohazalar jalb qilinganligi hamda olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan o‘z tasdig‘ini topgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonda milliy qadriyatlarni tiklash, tarixiy-madaniy merosni saqlash bo‘yicha ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, mavzuga oid darsliklar, o‘quv hamda uslubiy qo‘llanma, ko‘rsatmalar yaratishda, oliy o‘quv yurtlari, malaka oshirish kurslarida seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarix fanining “O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi”, “Etnomadaniyat”, “O‘zbekiston tarixi”, “Tarixiy geografiya”, “Manbashunoslik” kurslaridagi fanlararo yangicha yondashuvlar va ilmiy yo‘nalishlarni yaratish vazifalarini amalga oshirish hamda so‘nggi o‘rta asr tarixiga oid ilmiy-nazariy, qiyosiy tahlil va umumlashtirish uslublarini takomillashtira borishda ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida etnik jarayonlarning tarixiy-geografik tahlili tarixiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining ma'muriy tizimidagi bekliliklar, amlokliklar, amirlikning turli hududlaridagi viloyatlardagi etnotoponimlar, aholining etnik tarkibi forsiy, turkiy va rus tillardagi manbalar va statistik ma'lumotlar asosida aniqlanib, bu davrda amirlikda turkiy (o'zbek)cha etnotoponimlar ko'pchilikni tashkil etishi hamda o'rganilayotgan davrda Buxoro amirligidagi etnik o'zlikni anglash masalalari hamda yirik etnik guruhlar (mang'it, qo'ng'iroq, barhin, kenagas, saroy, nayman, qushchi, burqut, qarluq, barlos, do'rman va b.lar)ning geografik joylashuvi, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining o'troqlashuvi va yangi aholi maskanlarining tashkil topish jarayonlari amirlikdagi viloyatlar misolida ochib berilganligi kabi ilmiy natijalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida 2022-yil 16-dekabrda efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvining ssenariylarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali davlat muassasasining 2022-yil 16-dekabrda 02-31-2085-son ma'lumotnomasi). Bu esa Buxoro amirligi aholisi etnik tarkibining o'ziga xosligi, turmush tarzi turlicha bo'lgan (o'troq, yarim o'troq va yarim ko'chmanchi) etnoslarning voqea bo'ylab joylashuv xususiyatini o'rganishda, ko'rsatuv mazmunini boyitishda hal qiluvchi rol o'ynagan;

Buxoro amirligi mahalliy aholisi bo'lgan o'zbek, tojik, turkman va qozoqlarning amirlik bo'ylab tarqalish geografiyasi aniqlanib, ularning nisbati qaysi hududlarda ko'p yoki oz ekani, ular bilan bog'liq etnotoponimlar tog', tog'oldi, dasht hamda suv havzalarining qay birida ko'proq uchrashi kabi ilmiy natijalardan O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2022-yil 12-maydagi 01-14/4129-son ma'lumotnomasi). Natijada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida joylashgan Jizzax viloyatining tarixiy ildizlarini aks ettiruvchi ekskursiya matnlari va ular asosida tarixchilar uchun amalga oshirilgan ekskursiyalar sayyohlarda ham katta qiziqish uyg'otgan;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro, Qashqadaryo va Surxon vohalari hamda Sharqiy Buxoro va Amudaryoning o'rta havzasidagi siyosiy-ma'muriy birliklar aholisining turli-tumanlik kasb etishida so'nggi o'rta asrlarda asosan o'zbek urug'larining, qisman esa turkman urug'larining yoppasiga o'troqlasha boshlagani o'z ta'sirini ko'rsatgani haqidagi ma'lumotlardan Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi Buxoro viloyat muassasasida amirlikning etnik va geografik tarixini o'rganishda foydalanilgan (Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondining 2022-yil 1-avgustdagi 01-28/0108.22-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada Buxoro vohasi, Surxon vohasi va sharqiy Buxoro, Qashqadaryo vohalari, Amudaryoning o'rta havzasidagi siyosiy-ma'muriy birliklari aholisi hamda ulardagi etnik jarayonlar ma'muriy birliklarining etnomadaniy faolligini ko'rsatib berilganligi Buxoro amirligining geografik joylashuvi tarixiga oid ilmiy adabiyotlarni boyitishga hissa qo'shgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy 8 ta (ulardan 4 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallari) maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uchta asosiy bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, tadqiqot qismi 126 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad va vazifalar aniqlashtirilib, ishning obyekt va predmeti, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Olingan natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, tadqiqotning hajmi va tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Buxoro amirligining hududi, ma'muriy tuzilishi va aholisi**" deb nomlanib, birinchi paragrafda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligining siyosiy-ma'muriy tuzilishi va etnik tarkibi tahlil etilgan.

XVIII asrning 70-80-yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini o'z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilar edi. XIX asrning boshlariga kelib Surhon vohasi, Hisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan, Chorjo'ydan to Murg'ob daryosigacha bo'lgan hududlar ham kirar edi.

Amir Doniyolbiy davrida kenagas, yuz, barqut, saroy kabi yirik qabilalarning markaziy hokimiyatga qarshi qo'zg'olonlari natijasida mamlakatdagi ahvol nihoyatda og'irlashadi. Amir Shohmurod davrida esa janubiy hududlar qaytadan Buxoro davlati tarkibiga kiritiladi, mamlakat hududlari Chorjo'y, Karki, Marv hisobiga kengayadi.

Amir Haydar Jizzax va O'ratepa uchun Qo'qon xonlari bilan, Chorjo'y va Marv uchun Xorazm xoni Eltuzar (1804-1806) bilan bir necha bor jang olib borib, ichki va tashqi raqiblarining qarshiligini sindirishga erishdi¹⁹.

XIX asrning 50-yillarida Buxoro amirligi bir necha **viloyatlardan** tashkil topgan bo'lib, ulardan Buxoro va Samarqand o'z navbatida tumanlarga bo'lingan edi. Viloyat hukumdorlari "**hokim**" deb atalgan. Keyinchalik viloyat o'rniga **bekliklar** paydo bo'lgach, ularning hukmdorlari "**bek**" deb yuritiladi²⁰.

¹⁹ Кюгельген А.фон. Легитимация среднеазиатской династии Мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). – Алматы: Дайк-пресс, 2004. – С. 90.

²⁰ O'zMA, I 126-fond, 1-ro'yxat, 69-ish, 2-varaq.

Mirzo Badi Devonning “Majma’ ul-arqom” asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, 100 ming tanobdan iborat sug‘oriladigan yer **tumanga**, 50 ming tanobdan iborat sug‘oriladigan yer **hazoraga**, 25 ming tanob sug‘oriladigan yer **nimhazoraga**, 10-15 ming tanob sug‘oriladigan yer **obxo‘riga**, 400 tanob sug‘oriladigan yer **qariyaga**, 300 tanob sug‘oriladigan yer **ma’razaga (ekinzor)** bo‘lingan.

Ma’muriy-hududiy jihatdan amirlik quyidagi 27 beklilik, amlokdorlar yoki shohlar, aminliklarni o‘zbeklarda “mingboshi”, tojiklarda “arbob” deb ataluvchi, aholi tomonidan saylab qo‘yilgan oqsoqollar boshqarganlar²¹.

XIX asrning boshlarida amirlik aholisi taxminan 2 mln.dan oshiq, 50-yillariga kelib taxminan 2,5 mlndan ortiq bo‘lib, Buxoro shahrida taxminan 60 mingdan ziyodroq, Samarqand shahrida taxminan 50 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan²².

Amirlik aholisining katta qismini o‘zbeklar tashkil qilgan, aholi tarkibidagi tojiklar Samarqand, Buxoro, Nurota, Urgut, Kitob kabi shaharlarda, tog‘li tumanlarda, jumladan, Panjikent, Vaxsh, Hisor, Qorategin, Ko‘lob, Shahrisabz, Qobadiyon, Yakkabog‘ bekliliklarida, Zarafshonning yuqori qismida, turkmanlar amirlikning janubiy va g‘arbiy hududlarida, aholining kichik qismini tashkil etuvchi arablar esa Qarshi va Sherobod bekliliklarida yashaganlar.

Buxoro amirligidagi o‘rta darajadagi etnik guruhlar – *urug‘larning* aralash yashashi holati Amudaryo deltasida va O‘rta Zarafshon vohasining g‘arbiy qismida ko‘proq ko‘zga tashlangan. Bu hududlarda Saroy, Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Qipchoq, Xitoy, Nukus, Nayman, Qiyot, Ass, Durman, Uyshun, Jaloyir, Qangli, Tyrk, Qatag‘on, Kerait, Chandir, Urganji kabi urug‘ nomlaridan hosil bo‘lgan toponimlar ko‘proq tarqalgan²³.

Xullas, Buxoro amirligi hududi XVIII asrning ikkinchi yarmidan, mang‘itlar sulolasi hokimyatni egallagach, amirlikning hududi Miyonqol vohasi, Panjikent, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i, Sharqiy Buxoro hisobiga kengayib bordi. Viloyat hukumdorlari dastlab “hokim” keyinchalik esa “bek” deb atalib, ma’muriy tuzilishdagi kichik bo‘linmalar qishloq, mavze va dahalarga bo‘lingan edi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “**Buxoro amirligi shimoli-sharqiy hududlaridagi viloyatlar**” deb nomlangan. XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Buxoro amirligining shimoli-sharqiy hududlarida amirlikka qarashli Kom-i Mig‘ (Konimex), Karmina (Karmana), Nurota va Xatirchi viloyatlari joylashgan bo‘lib, ulardan birinchisi – Kom-i Mig‘ Buxoro tumanlaridan biri hisoblangan, qolganlari esa “viloyat” deb yuritilib, viloyatlar “bek” deb ataladigan hokimlar tomonidan boshqarilgan va ular bir necha amlokliklarni o‘z ichiga olgan. Ayrim paytlarda Kom-i Mix Karmina viloyatining amlokliklaridan biri sanalib, amirlikka tegishli hujjatlarda uning muayyan bir amloklik bo‘lganiga doir ma’lumotlarga ham duch kelamiz²⁴.

²¹ Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1: Территория и населения Бухары и Хорезма. Часть 1: Бухара. – Т.: Туркпечать, 1926. – С. 63-64.

²² Бердиев Ж.П. Жанубий ўзбекистонда шаҳарсозлик ва урбанизация тарихи (XVIII-XX асрр бошлари) тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ДИСС. АВТОРЕФ. – Қарши, 2021. – Б. 15.

²³ Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XXв.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р.Мухаммеджанова. – Тошкент: Университет, 2001. – С. 5-41, 62-72, 73-83; Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана... – С. 144-184.

²⁴ Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.). – С. 238-246, 260-270.

Nurota viloyati XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Buxoro amirligining eng shimoliy hududi sanalgan. Amirlikning shimoli-sharqiy viloyatlari – Karmina, Xatirchi va Nurota o‘nlab amlokliklarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, Karmina viloyatida Yangiqo‘rg‘on, Xonim, Cho‘li va Turkiston, Qasaba, Harqon, Komimig‘, Qo‘rg‘on, Davrqo‘rg‘on kabi amlokliklar har biri alohida mavzelarga ega bo‘lgan.

Karmana viloyatidagi aholi maskanlarining arg‘un, olchin, tama urug‘lari ko‘proq qozoqlar bilan bog‘liq bo‘lsa, Bahrin, Burqut, Durmon, Yabu, Kelachi, Mesit, Ming, Mojoy, Saroy, Turkman, Qatag‘on, Qiyot, Qurama, Qo‘ng‘irot, Chuyut nomli qishloqlar ko‘pincha o‘zbek aholi maskanlari sifatida bo‘lingan²⁵.

Nurota viloyati Karmina viloyatidan farqli holda birmuncha tog‘lik hududlardan tashkil topib, aholi maskanlarining soni Karminaga nisbatan kamchilikni tashkil etgan. Oq-tosh, Qora-tosh, Ko‘k-tepa, Palan-soy, Qayirma va h.k. Shu bilan birga, Nurotaga qarashli amlokliklarda yolontamg‘ali (yalon-tamg‘ali), saroy, ko‘kto‘nli, qo‘sh tamg‘ali, quralas, tikanchi, turkmaniya, o‘g‘lon kabi urug‘ nomlari ham mavjud bo‘lgan²⁶. 1924-yilgi aholini ro‘yxatga olish paytida bu yer aholisining ko‘pchiligini tashkil etgan o‘zbek-turkmanlarning soni 8600 kishi deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, mirishkorlar – 400, urganjilar 260 kishi deb qayd etilgan. Shu bilan birga, bu yerda burqut, bahrin, ming, qatag‘on va turk deb ataluvchi o‘zbeklar ham son jihatdan salmoqli bo‘lgan. Bundan tashqari, o‘zbeklar tarkibiga kirib, o‘z urug‘ mansubligini bilmaydigan “sayid”, “xo‘ja”, “qoraxoni” kabi ijtimoiy-diniy guruhlar va “bog‘donlik”, “garasha” va hokazo kabi hududiy nomlar bilan ataluvchi guruhlar ham qayd etilgan²⁷.

Xatirchi viloyatidagi aholi maskanlari Nurotadan farqli holda bu yerda etnotoponimlar ko‘pchilikni tashkil etgan. Xatirchi amlokliklarida Arab, Bahrin, Burqut, Jaloyir, Durmon, Yabu (Yobu), Mang‘it, Nayman, Olot (Arlot), Olchin, Ochamayli, Tama, Tama-Bahrin, Turk, Turkman, Qipchoq, Qirg‘iz, Qoraqalpoq, Qo‘ng‘urot, Chuyut kabi etnotoponimlar uchrab, ular orasida Arab, Bahrin, Mang‘it, Nayman, Turkman nomli qishloqlar aytib o‘tilgan amlokliklarning bir qanchasida mavjud bo‘lgan²⁸. Shu bilan birga, Chubalakchi, Bolg‘ali, To‘qsonboy, Tasmachi, Boy-to‘pi va hokazo kabi tarmoq urug‘ nomlari bilan atalgan qishloqlar ham bo‘lgan. Bu viloyatda ham Urganji nomli aholi maskanlari mavjud bo‘lgan. Xullas, XIX-XX asrlarda Buxoro amirligining shimol va shimoli-sharqiy hududlaridagi siyosiy-ma‘muriy birliklar – Karmina, Nurota va Xatirchi o‘ziga xos ijtimoiy va iqtisodiy-madaniy markazlar sifatida amirlikning muhim hududlari sanalgan.

Aholining etnik tarkibida ham markaziy hududlarga xoslik ko‘zga tashlanib, asosan, o‘zbek va tojiklardan, qisman esa turkman, arab va qozoqlardan tashkil topgan aholi orasida o‘ziga xos etnomadaniy jarayonlar yuz bergan.

Tadqiqotning **II bobi “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida yuz bergan etnik jarayonlar”** deb nomlaanib, uning birinchi paragrafi Buxoro amirligida etnik o‘zlikni anglash masalalariga bag‘ishlangan.

Buxoro amirligining turli hududlarida milliy mansublik masalasi turlicha bo‘lgan. Buxoro shahrining Havzibaland mahallasida 100 ga yaqin xonadon

²⁵ O‘sha asar. – B. 238-245.

²⁶ O‘sha asar. – B. 246.

²⁷ Материалы всероссийских переписей 1920 г. Перепись населения в Туркестанской республике. Поселенные итоги Самаркандской области. Ташкент, 1924 г. Ч. 1. Вып. 5. – С. 204-205.

²⁸ Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.). – С. 260-270.

mavjud bo‘lib, aholisining katta bir qismi forslardan, bir qismi esa tojik tilli o‘zbeklardan iborat bo‘lgan va shu bois ular yashaydigan ko‘cha “Ko‘chayi o‘zbako” (O‘zbeklar ko‘chasi) deb nomlangan²⁹. Ushbu mahalla nomining turkiy (o‘zbek)cha ekanligi ham bu yer aholisining etnik kelib chiqishi o‘zbek bo‘lib, keyinchalik tojik tilida so‘zlashishga o‘tganliklarini tasdiqlaydi. Shuningdek, 95 xonadondan iborat Mehtar Anbar mahallasining tojik tilli aholisi o‘zlarni “Buxoro o‘zbeklari” (“O‘zbekoyi Buxoro”) deb tanishtirganlar³⁰. O.A.Suxarevaning yozishicha, buxoroliklar ayrim hollarda tojikcha so‘zlashuvchi o‘zbeklarni “tojikigo‘y” yoki “forsigo‘y”, ona tili o‘zbekcha bo‘lganlarni esa “turkigo‘y” deb atashgan³¹.

Buxoroliklar “tojik” nomi ostida, asosan, eronlik shialarni tushunishgan, tojik tilli sunniy aholini esa ko‘pincha “o‘zbek” deb bilishgan. Buxoro shahrining ayrim mahallalarida tojik tilli aholi o‘zini “o‘zbek” deb atab, hatto o‘zlari gaplashadigan tojikchani “o‘zbekcha” deb nomlashgan³².

Buxoro amirligi va boshqa o‘zbek xonliklari aholisining etnik tarkibi “turklashgan” iborasiga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Bu ibora mazmunida uch-to‘rt xil ma‘no yotadi:

1) turkiylar bilan qadimdan qo‘shni yoki aralash yashab kelgan bir qator etnoslar – asosan eroniyalar, arablar va mo‘g‘ullarning bir necha asrlar mobaynida o‘z tilini yo‘qotib, turkiy tilda so‘zlasha boshlashlari va o‘z-o‘zini anglash (identity)da “turkiy” deb e‘tirof etishlari;

2) turkiylar tomonidan bir necha hududlarning (asosan, Yevroosiyo dashtlari, Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i, Sharqiy Turkiston, Afg‘oniston, Eron, Kichik Osiyo, Qrim, Shimoliy Kavkaz) egallanishi natijasida bu hududlar mahalliy aholisining o‘z tilini unutib, turkiy tilga o‘tishlari;

3) bir necha g‘ayriturkiy etnoslarning turkiylar muhitiga tushib (turli tarixiy voqeliklar natijasida asosan Markaziy Osiyo hududlariga kelib joylashib), asrlar mobaynida o‘z ona tillarini unutishlari va turkiy tilni qabul qilishlari;

4) turkiylarning o‘z hududlaridan tashqariga chiqib, Yevroosiyo materigidagi bir necha o‘lkalarga ko‘chishlari (migratsiya, istilolar va h.k.) natijasida yangi borib joylashgan aholiga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etishlari va u yerni “turklashtirishlari”.

Buxoro amirligining sezilarli qismini tashkil etgan shahar aholisi – urug‘larga bo‘linmaydigan o‘zbeklar va tojiklar orasida o‘zlik masalasida birmuncha farqli yondashuv mavjud bo‘lgan³³.

Buxoroliklar ayrim hollarda tojikcha so‘zlashuvchi o‘zbeklarni “tojikigo‘y” yoki “forsigo‘y”, ona tili o‘zbekcha bo‘lganlarni esa “turkigo‘y” deb atashgan³⁴.

Buxoro amirligi va boshqa o‘zbek xonliklari aholisining etnik tarkibi to‘g‘risida so‘z borganda ko‘pchilik “mahalliy aholining turklashuvi”ga urg‘u berishgani ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda O‘rta Osiyo, shu jumladan, mamlakatimiz tarixiga

²⁹ Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 123.

³⁰ Ўша асар – Б. 258.

³¹ Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – С. 128.

³² Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 73, 94, 255.

³³ Абашин С. Национализмы в Средней Азии в поисках идентичности. – СПб.: Алетейя, 2007; Абашин С.Н. Этнографическое знание и национальное строительство в Средней Азии («проблема сартов» в XIX – начале XXI в.): Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора исторических наук. – М., 2008. – С. 5-11.

³⁴ Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – С. 128.

aloqador bir masalaga – “turklashgan” iborasi bo‘yicha turli tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni ixchamlashtirib qarab chiqadigan bo‘lsak, bu ibora ostida asosan uch-to‘rt xil ma’no yotishi anglashiladi. Buxoro amirligida o‘zlikni anglash yoki aholining ijtimoiy va etnomadaniy mansubligi masalasida etniklik ko‘proq amirlik tarixnavisligida “sahronishin”, “sahroyi” (dashtlik) deb hisoblanadigan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi elatlar – o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman kabi turkiy aholi orasida ancha muqim tarqalgan bo‘lib, bunga birmuncha teskari holat “shahriy” deb ataladigan³⁵ o‘troq aholisida saqlangan bo‘lib, bu an’ana amirlikdagi shahar aholisi, xususan, urug‘-qabilaviy bo‘linish an’anasi bo‘lmagan turkiy tilli o‘zbek aholi va tojiklar bilan bog‘liq holda keng yoyilgan edi.

Xullas, Buxoro amirligi doirasida etnik o‘zlikni anglash masalalari bilan qisqacha tanishib chiqish shundan darak beradiki, bu masalada amirlikning barcha hududida bir xil umumlashgan va muqimlashgan sobit tushuncha bo‘lganligi deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Aholi orasida bu masalaga o‘zining tili, etnik kelib chiqishidan ko‘ra ko‘proq diniy mansublik nuqtayi nazaridan yondashuv omili ustuvorlik qilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Buxoro amirligidagi yetakchi urug‘ nomlari – etnonimlar”**ga bag‘ishlangan.

Buxoro amirligi davrida aholi ko‘pincha etnik mansubligiga qarab emas, xo‘jalik turmush tarziga qarab ikkiga bo‘lingan: shaharlar va o‘troq qishloqlarda yashaydigan, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanadigan o‘troq aholi – “qishloqnishin”, “dehonishin” va dasht va cho‘llarda yarim ko‘chmanchi va ko‘chmanchi turmush tarziga ega, chorvachilik bilan shug‘ullanadigan “dashtiy”, “sahroyi”, “sahronishin”, “dashtnishin” deb atalgan chorvador aholi. Shuningdek, tog‘ daralari va tog‘ yonbag‘irlarida yashagan aholi uchun ba‘zan “kuhiy” (tog‘lik), “g‘alcha” (tog‘liklarga xos) kabi atamalar qo‘llanilgan. Shahar aholisi asosan o‘zbek va tojiklardan, qisman “eroniy” va yahudiylardan iborat bo‘lsa³⁶, o‘zbeklarning sezilarli bir qismi, qozoq, turkman va qoraqalpoqlar dasht va cho‘l aholisi, ya’ni chorvadorlar, qirg‘izlar tog‘lik chorvador sifatida bilingan.

Mang‘itlar – yirik turkiy elatlardan biri bo‘lib, Buxoro amirligining eng ko‘p sonli urug‘laridan biri sifatida bilingan. Amirlik hududida asosan Qarshi bekligida mang‘itlarning eng ko‘p sonli qismi yashaganligini qayd etgan XIX asr oxiri – XX asr boshlariga tegishli yozma manbalarda ularning 99 200 kishi, shu jumladan, Buxoro vohasida 44000, Qarshi shahri atrofida 31000, Xiva xonligida 10 200 kishidan iboratligi aytib o‘tilgan³⁷.

O‘zbek mang‘itlarining tarmoqlari bo‘lmish *to‘q-mang‘it*, *oq-mang‘it*, *chol-mang‘it*, *boyg‘undi-mang‘it*, temirxo‘ja kabi urug‘larning nomi no‘g‘oy, qoraqalpoq va yana bir qator turkiy xalqlar tarkibida mang‘it urug‘ining tarmoqlari sifatida uchrashi, ushbu urug‘larning haqiqiy mang‘itlar ekani yoki ko‘p asrlardan beri mang‘itlar tarkibidan joy olganligini ko‘rsatadi. Jumladan, XVI-XVII asrlarga tegishli rus hujjatlarida no‘g‘oylarning *esebay-mangit*, *beshulu-mangit*, *kara-mangit*,

³⁵ Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демографик жаарёнларнинг манбаларда акс этиши (XVI – XIX аср биринчи ярми). – Б. 26.

³⁶ Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. ... – С. 67-77.

³⁷ Керейтов Р.Х. Ногайцы. Особенности этнической истории и бытовой культуры. – Ставрополь: Сервисшкола, 2009. – С. 92; Жўрақулов О. Қашқадарё манғитлари. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 12.

shigasan-mangit, *ak-mangit* kabi tarmoq urug‘lari qayd etilgan bo‘lib³⁸, ularning bir qismi – *esaboy*, *qora-mang‘it*, *oq-mang‘it* Buxoro amirligi mang‘it o‘zbeklari tarkibida ham uchraydi³⁹. No‘g‘oylar tarkibidagi *beshulu-mang‘it*, ya‘ni *besho‘g‘il* yoki *beshuli* urug‘i o‘zbeklar orasida qo‘ng‘irotlarning bir tarmog‘i sifatida bilingan⁴⁰. XVI-XVII asrlar rus hujjatlarida no‘g‘oylarning alohida bir urug‘i sifatida qayd etilgan *temir-xo‘ja* urug‘i⁴¹ esa o‘zbeklar tarkibidagi mang‘itlarning bir tarmog‘i sifatida bo‘lgan. Dashti Qipchoqdagi *temir-xo‘ja* urug‘i ba‘zan alohida no‘g‘oy urug‘i, ba‘zan esa mang‘itlar tarkibidagi tarmoq urug‘i sifatida ko‘rsatilishidan kelib chiqilsa⁴², ularning keyinchalik ham Buxoro amirligidagi etnik jarayonlarda ishtirok etishi mang‘it urug‘i tarkibidagi alohida urug‘i maqomini saqlab qolganligini taxmin qilish mumkin. Demak, o‘rta asrlarda mang‘itlar o‘z ichki bo‘linishiga ko‘ra no‘g‘oylar va ko‘chmanchi o‘zbeklarda deyarli bir xillikka ega bo‘lgan. Buni har ikkala xalq tarkibida *oq-mang‘it*, *qora-mang‘it*, *temir-xo‘ja*, *esaboy*, *o‘n-ikki*, *chavqay*, *kenagas* kabi etnonimlar uchrashi ko‘rsatib turibdi.

Mo‘g‘ullar tarkibida ham mangud yoki mangad deb ataladigan urug‘ borligi va uning tarmoq urug‘larida biri *xara-mangad* (qora-mang‘it) deb nomlanishini aytib o‘tish kerak⁴³. Shuningdek, mo‘g‘ul xalqlaridan biri bo‘lgan qalmiqlarning *xara-mangad* (qora-mang‘it), *to‘lg‘a mangad* kabi tarmoq urug‘lari mavjud bo‘lib, o‘zbek mang‘itlar oq-mang‘it tarmog‘ini bir bo‘limi *to‘lg‘a* deb atalgan. Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi yirik aholi maskanlaridan biri To‘lg‘a deb nomlanib, aholisi o‘zlarini oq-mang‘itlarning bir urug‘i sifatida bilishgan⁴⁴. *To‘lg‘a* yoki *tulug‘a* etnonimi 1920-yillarda rus tadqiqotchilari no‘g‘oylarning *oq-mang‘it*lariga aloqador *tulug‘a-quba* urug‘i to‘g‘risidagi ma‘lumotni qayd etishgan⁴⁵.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro shahridagi 220 ta mahallaning nomi til jihatidan turlicha bo‘lib, ularning katta bir qismini fors-tojikcha nomlar tashkil etgan. Buxoro mahallalarining sezilarli bir qismi esa arabcha va turkiy (o‘zbek)cha nomlardan iborat bo‘lgan. Har uchala tilga mansub mahalla nomlarining katta bir qismini antroponimlar, bir qismini esa etnonimlar tashkil qilib, ular orasida o‘zbek urug‘lari bilan bog‘liq etnotoponimlar uchraydi: Turki Jandiy, Qatag‘on, (Hofiz) Qo‘ng‘irot, Durman, Qalmoqon, Uruson, Chubuton⁴⁶. Shuningdek, Buxoroning bir qator mahallalarida yashovchi aholining sezilarli bir qismi o‘zlarining kelib chiqishini o‘zbek urug‘lari bilan bog‘lab, ular orasida *mang‘it* (8 ta mahallada), *urganji* (4 ta mahallada), *kenagas* (3 ta mahallada), *bahrin*, *batosh*, *chuyut*, *nayman*, *uch-urug‘*, *o‘zbek-turkman*, *qalmoq*, *burqut*, *qirq-yuz* singari urug‘lar yoki aholi guruhlari yashaganlar⁴⁷.

³⁸ Трепавлов В.В. История Ногайской Орды. – Казань, 2016. – С. 490; Керейтов Р.Х. Ногайцы. Особенности этнической истории и бытовой культуры. – С. 92.

³⁹ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Б. 160-162, 332, 383.

⁴⁰ Ўша асар.. – Б. 61.

⁴¹ Трепавлов В.В. История Ногайской Орды. С. 492.

⁴² Ўша асар. – Б. 496.

⁴³ https://ru.wikipedia.org/wiki//_Мангуты#Монгольские_мангуты.

⁴⁴ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Б. 254.

⁴⁵ Керейтов Р.Х. Ногайцы. Особенности этнической истории и бытовой культуры. – С. 92.

⁴⁶ Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 91, 128, 160, 198.

⁴⁷ Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Тошкент: АН УзССР, 1958. – С. 79; Ўша муаллиф: Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 105, 126, 152, 160, 163, 166, 224.

Buxoro amirligida *nayman, saroy, turkman-juz, qo'ng'iroq, juz, qirq, durman, qarluq, barlos, xitoy, kenagas, qipchoq, qushchi* (qutchi) va hokazo kabi ko'psonli va nufuzli o'zbek urug'lari bo'lishiga qaramay aynan ushbu 4 ta urug' vakillarining amirni taxtga o'tqizishda kigizning bir chetini ushlab turishlarining sababini chuqurroq tahlil qilish kerakligini ta'kidlagan holda bu borada yana ba'zi taxminlarni bildirib o'tish lozim bo'ladi.

Xullas, Buxoro amirligidagi yetakchi urug' nomlari – etnonimlar masalasiga ayrim urug'lar misolida qisqacha nazar tashlash shuni ko'rsatdiki, amirlikda asosan ko'chmanchi o'zbeklarga, qisman esa ulardan oldingi o'troq o'zbek aholiga tegishli etnonimlar ko'pchilikni tashkil etgan.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi **“XIX-XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi etnotoponimlari”** deb nomlangan. Qashqadaryo vohasi etnotoponimikasiga, umuman olganda, qadimgi davr va o'rta asrlar toponimikasi bosqichlarini shartli ravishda quyidagicha davrlarga bo'lish mumkin:

1-bosqich. Miloddan oldingi mingyillikning o'rtalaridan to milodiy ilk o'rta asrlargacha bo'lgan davr. Bu davrga tegishli toponimlar asosan sug'diy negizli joy nomlari bo'lib, Naxshab, Kesh, Kasbi, Navtaka (Novqat) toponimlaridan iborat.

2-bosqich. Ilk o'rta asrlar – Xioniylar, Eftaliylar va Turk xoqonligi bilan bog'liq ravishda bir qator forsiy va turkiy joy nomlarining vujudga kelishi.

3-bosqich. Arab istilosi va ilk mahalliy musulmon sulolalarining hukmronligi davri. Bu bosqichda vohada arabcha, forsha va turkiycha joy nomlari paydo bo'ladi.

4-bosqich. Mo'g'ul istilosi davri. Bu davrda mintaqaning ko'plab hududlarida bo'lganidek Qashqadaryo vohasida ham ko'plab turk-mo'g'ul negizli etnotoponimlar vujudga keladi.

5-bosqich. Temuriylar, Shayboniylar va o'zbek xonliklari davri. Bu davrda turkiy urug'larning voha bo'ylab keng tarqalib, o'troqlashuvi va etnotoponimlar salmog'ining oshishi kuzatiladi.

Buxoro amirligi davrida Qashqadaryo vohasida yuz bergan migratsiya va etnomadaniy jarayonlar natijasida paydo bo'lgan qishloq nomlari ham ko'pchilikni tashkil etadi. Buning tasdig'i vohadagi ayrim bekliliklar misolida qarab chiqilganda ayniqsa yanada yaqqolroq o'z tasdig'ini topadi. Xususan, vohadagi eng ko'p qishloqlarga ega Qarshi bekligiga qarashli barcha amloklarda o'zbek urug'lari⁴⁸ bilan bog'liq etnotoponimlar mavjud edi⁴⁹.

XX asr boshlarida mavjud bo'lgan Qarshi bekligiga qarashli 210 ga yaqin aholi maskanlarining⁵⁰ 45 tasini etnotoponimlar tashkil qilgan. Bu esa beklidagi mavjud qishloqlarning ¼ etnotoponimlardan iborat edi deb xulosa chiqarishga imkon beradi.

Qashqadaryo vohasi mahalliy aholisining sezilarli bir qismini turkmanlar tashkil etib, ular asosan, vohaning g'arbiy qismida – bir vaqtlar Qarshi bekligiga qarashli bo'lgan Muborak, Kasbi va Mirishkor tumanlarida istiqomat qiladilar. Maymanoq amlokligiga qarashli Kuhna-shahar qishlog'i atroflarida Sariq (bugungi Muborak tumani), Juynav amlokligi atrofi (bugungi Mirishkor, Kasbi tumanlari)da esa Pomuq, Chandir, Sheyx (Shix, Shiq) kabi etnotoponimlar turkman tilli aholi

⁴⁸ Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен илатийа» ... – С. 165-176.

⁴⁹ Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) ... – С. 292-296.

⁵⁰ Муродилла Саидов, Поён Равшанов. Жейнов тарихи. – Тошкент, 1996. – Б. 34.

yashaydigan qishloqlar sifatida bilingan⁵¹. Yuqori Qashqadaryoda esa turkmanlar bilan aloqador biron etnotoponim ko‘zga tashlanmaydi.

Saroy urug‘i bilan bog‘liq etnotoponimlar esa Qarshi, G‘uzor, Chiroqchi, Yakkabog‘ va Kitob bekliliklarida keng tarqalgan⁵².

Qarluq etnonimi bilan bog‘liq joy nomlari Qashqadaryo viloyatining g‘arbiy qismida, ko‘proq quyi Qashqadaryoda uchraydi. Jumladan, Qarshi shahri atrofida Qarluqxona, Qarluqbog‘ot qishloqlari, Dahayi Miyona amlokidagi Xo‘jaQarluq Qarshi bekligining Maymanoq amlokligi g‘arbiy chekka hududlari yaqinidagi Qarluq (bugungi Muborak tumaniga qarashli qishloq)⁵³ etnotoponimlari asosan ushbu hududga xosdir.

Xullas, Qashqadaryo vohasi etnotoponimlar masalasida nihoyatda boy hudud bo‘lib, shu jihati bilan Surxon, Zarafshon va Jizzax vohalari bilan yaqin o‘xshashlikka ega.

Tadqiqotning **III bobi “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining siyosiy-ma‘muriy birliklari aholisi”** deb nomlanib, uning birinchi paragrafi Buxoro vohasi siyosiy-ma‘muriy birliklari aholisiga bag‘ishlangan.

Buxoro amirligi davrida amirlikning markaziy hududi asosan Buxoro vohasi yoki Buxoro viloyatidan iborat bo‘lib, ushbu hududning siyosiy-ma‘muriy jihatdan boshqaruvi amirlik tarkibidagi boshqa hududlardan birmuncha farqlangan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining bir necha viloyat va tumanlarida bir qator ma‘muriy o‘zgarishlar qiliningani ma‘lum.

Buxoro shahrining o‘zi bir necha o‘nlab ma‘muriy birliklarga taqsimlangan holda boshqarilib, ular “guzar” deb atalgan. Guzarlarning har biri tuzilishi jihatidan muayyan bir mahalla ko‘lamida bo‘lib, ularning soni 200 dan ortiq bo‘lgan⁵⁴.

Buxoro shahrida, umuman olganda, butun amirlik hududida “shaharlik”, “o‘troq”, “hunarmand” (shaharnishin, dehnishin) aholi va ko‘chmanchi yoki xo‘jalik turmush tarzida chorvadorlarga xos an‘analar ustuvorlik qiluvchi “sahronishin”, “dashtiy”, “elat” deb ataladigan aholi guruhlariga bo‘lish an‘anasi ham mavjud bo‘lgan. Birinchi guruhga “buxorolik”, “qarshilik”, “samarqandlik”, “shahrisabzli” va hokazo kabi yirik shaharlar va ular atrofidagi o‘troq aholi vakillari tushunilgan. Ikkinchi guruh vakillari esa asosan ko‘chmanchi o‘zbeklardan tashkil topib, ular Zarafshon, Nurota, Jizzax, Qashqadaryo va Surxon vohalari, Sharqiy Buxorodagi tekisliklarda yashagan, o‘zining urug‘-qabilaviy tuzulishiga ega ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi sifatida bilingan. Bundan tashqari, amirlikda “kuhistoniy”, ya‘ni “tog‘lik, tog‘da yashovchilar” degan ibora mavjud bo‘lib, ular Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi tojik tilli yoki qadimiy eroniy lahjalarda (yag‘nobi, maschoi, g‘alcha) so‘zlashuvchi tog‘lik aholi hamda Zarafshon va Hisor tog‘ tizmalari aholisi, Surxon vohasi va Sharqiy Buxorodagi Badaxshon tog‘larida istiqomat qiluvchi aholidan iborat bo‘lgan.

Qushbegi arxivi ma‘lumotlari (1914 y.)ga ko‘ra amirlikdagi aholi manzillarining ma‘muriy nomlanishida uchta atama yetakchilik qilgan: qishloq (turkiycha), mavze

⁵¹ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси ... – Б. 210, 223, 290, 325.

⁵² Маликов А. Узбеки группы «сарай» долины Зерафшана в XIX – начале XX вв. // Бухоро davlat universiteti ilmiy axboroti, 3-son, 2007. – С. 3-10.

⁵³ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси... – Б. 359.

⁵⁴ Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) ... – С. 179-181.

(arabcha), deha (tojikcha). Ba'zi amlokliklarning aholi manzillari to'laligicha shu nomlardan biri bilan atalgan.

Buxoro vohasida yashagan aholi maskanlarining katta bir qismi etnonimlar bilan atalib, bu holat nafaqat o'zbeklar tarkibidagi urug'lar, balki, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, no'g'oy, turkman, boshqird kabi bir qator turkiy xalqlar tarkibida uchrab, bu holat ushbu xalqlarning tarixiy, lisoniy, etnogenetik birligi bilan aloqadorligi bilan izohlanadi⁵⁵. Xullas, Buxoro amirligining muhim markaziy hududi bo'lgan Buxoro viloyati ma'muriy birliklari aholisi bilan bog'liq joy nomlari va ularning etnik tarkibi bilan qisqacha tanishib chiqish shuni ko'rsatadiki, viloyat o'nlab tuman va bir necha yuzlab qishloqlardan iborat bo'lgan. Aholining katta qismi "deh" va "qishloq" deb ataluvchi hamda muayyan bir amloklik tarkibida bo'lgan aholi maskanlarida yashaganlar.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi "**Surxon vohasi va Sharqiy Buxorodagi siyosiy-ma'muriy birliklar aholisi**" deb nomlangan. Buxoro amirligiga qarashli beklklar orasida Surxon vohasi va Sharqiy Buxorodagi beklklar ham o'ziga xos o'rin o'rin tutgan. Asosan Hisor va Badaxshon tog'lari orasida joylashgan bu hududlarda Boysun, Sherobod, Denov, Hisor, Ko'lob Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Shug'on-Rushon, Qo'rg'ontepa, Qabodiyon kabi beklklar mavjud bo'lgan⁵⁶:

Surxon vohasi aholisining katta qismi, Hisor, Qabodiyon, Qo'rg'ontepa, Baljuvon va Ko'lob beklklar aholisining sezilarli bir qismini o'zbeklar tashkil etib, ularning bir qismi o'troq dehqon, bir qismi esa ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi chorvador aholidan iborat edi. Surxon vohasi va Sharqiy Buxoro hududlaridagi o'zbek aholining o'troq aholisi orasida qarluq lahjasi keng tarqalgan bo'lib, ular hududdagi shahar va yirik aholi maskanlarida istiqomat qilishsa, ko'pincha qipchoq lahjasida so'zlashuvchi chorvador o'zbeklar tog' etaklaridagi yaylov va dashtlarda umrgo'zaronlik qilishar edi.

Sharqiy Buxoro o'zbeklarining sezilarli bir qismi "mo'g'ul" deb nomlangan urug'lardan tashkil topgan. Ko'lob bekligada 25 ta qishloq, Baljuvon bekligida 2 ta, Hisor bekligida 4 ta, Qo'rg'ontepa bekligida 3 ta qishloq aholisi o'zbeklarning mo'g'ul urug'iga mansub bo'lgan. Ushbu qishloqlarning ko'pchiligi Mo'g'ul, Mo'g'ulon kabi nomlar bilan atalib, asosan Yaxsuv, Jilg'a, Panj, Varzob kabi daryolar havzalarida va tog' etaklarida joylashgan⁵⁷. Mug'ul, Mo'g'ulon, Mo'g'al, Mug'ilon kabi etnotoponimlar Buxoro amirligining Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridagi beklklarda, xususan, tog'lik hududlarda tarqalgan⁵⁸.

Sharqiy Buxorodagi beklklarda, xususan, Qizilsuv, Yaxsuv, Kofirnihon va Vaxsh daryolari havzalarida o'zbeklarning "laqay" deb ataluvchi ko'psonli urug'i yoki alohida elati (etnografik guruhi) istiqomat qilgan⁵⁹. Sharqiy Buxoroda ular ancha ko'pchilikni tashkil etganligi sababli bu hudud ko'pincha mahalliy xalq

⁵⁵ Ахмедов Б. Государство кочевыхузбеков. – М.: Наука, 1965. – С. 15-17, 22-23; Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен илатийа» // Средняя Азия в древности и средневековье. – М.: Наука, 1977. – С. 165-176; Атаниязов С. Этнонимы в туркменском языке. – Ашгабат: Ёльым, 1994. – С. 98-133.

⁵⁶ Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий (Фойдали тарих). Тожики тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов, З.Чориев. – Тошкент: Академия, 2001. – Б. 32; Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) ... – С. 10.

⁵⁷ Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) ... – С. 172-173.

⁵⁸ Нафасов Т. Қашқадарё кишлоқномаси. – Б. 173.

⁵⁹ Bregel Y. An Historical Atlas of Central Asia ... – P. 70-71; Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана ... – С. 97-101.

orasida, ba'zan amirlik hujjatlarida "Laqayiston", "O'zbekiston" degan nomlar bilan atalgan. Laqaylar o'zbek tilining qipchoq shevasida so'zlashib, bu jihatdan qo'shnilari bo'lmish qo'ng'iroq va durmanlardan deyarli farq qilmagan, faqatgina leksikasi va fonetikasida ayrim o'ziga xosliklar mavjud bo'lgan. Sharqiy Buxoro aholisining sezilarli bir qismini "turk" deb atalgan o'zbek aholi tashkil etib, Buxoro amirlikiga oid hujjatlarda ularning o'nlab qishloqlarda yashashi qayd etilgan. Turk deb atalgan tojik tilli aholi ham bu hudud aholisining kattagina bir qismi tashkil etib, birgina Baljuvon bekligida Araqmast, G'ulaki-Zarin, Gul-dara, Qal'ai-turk, Qora-tepa, Kofir-qal'a, Quvvat-Ali, Kurpiyoni-bolo, Kurpiyoni-poyon, Loy-soy, Obi-Darai-Sangin, Obi-Darai-Chanor, Olicha-dara, Ox-chashma, Sari-osiyoq, Sarsi-buloq, Safar-g'umor, Sulton-Ali, Tandir-soyi-bolo, Teshkandi-pon, Chor-devol, Chujai-berdi-turko nomli qishloqlari mavjud bo'lgan⁶⁰.

Sharqiy Buxoroning eroniy xalqlaridan biri belujlar bo'lib, ular mahalliy xalq orasida "baluch", "buluch" deb atalgan. Sharqiy Buxorodagi bir necha aholi maskanlarida xazoralar ham yashab, ular fors tilida so'zlashgan. Sharqiy Buxoro eroniy tilli aholisining bir qismini afg'onlar tashkil etib, ularning bir qismi tojikcha, bir qismi esa o'zbekcha so'zlashganlar⁶¹.

Sharqiy Buxoro hududidagi aholi maskanlarining sezilarli bir qismi o'zlarini "arab" deb biladigan qishloq va guzarlardan iborat bo'lgan⁶². Xullas, Buxoro amirligi davrida amirlikning janubiy va janubi-sharqiy hududlarini tashkil etgan Surxon vohasi va Sharqiy Buxoro (bugungi markaziy, janubiy va janubi-sharqiy Tojikiston)dagi bekliliklar aholisi, bu yerlardagi toponim va etnonimlar tarkibiga qisqacha nazar tashlash shundan darak beradiki, bu hududning mahalliy aholisi asosan o'zbeklar va tojiklardan, qisman esa sharqiy eroniy tillarning turli lahjalarida so'zlashgan pomirliklar va badaxshonliklardan, shuningdek, turkman, afg'on, xazora, beluj va hokazo kabi xalq va elatlardan iborat bo'lgan.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi "**Amudaryo o'rta havzasi siyosiy-ma'muriy birliklari aholisi va etnik jarayonlar**"ga bag'ishlangan. Buxoro amirlikining muhim siyosiy-iqtisodiy markazlaridan bo'lgan O'rta Amudaryo, ya'ni Amudaryoning o'rta havzasidagi viloyatlar amirlikda kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda o'ziga xos o'rin tutgan. O'rta Amudaryo havzasidagi eng chekka hududlardan biri bo'lgan Kelif viloyati esa "amlolik" emas, "bekcha" deb yuritilgan⁶³ 3 ta yirik ma'muriy birlik tarkibiga kiruvchi 25 ta qishloqni o'z ichiga olgan edi⁶⁴.

O'rta Amudaryo aholisining etnik tarkibi amirlikning boshqa hududlariga nisbatan birmuncha monoetnik bo'lib, bu hududda asosan turkman va o'zbek aholi istiqomat qilgan. Shu bilan birga, hududda kam sonli bo'lsa-da, o'zbek tilli arablar hamda eroniylar (buluch, marvi) yashaganlar. Hududdagi o'zbeklar Qorako'l tumani⁶⁵ va Chorjuyda asosan o'g'uz lahjasida so'zlashsa, Karki va atroflarida qarluq lahjasida, Kelif viloyatida esa asosan qipchoq lahjasida so'zlashganlar.

⁶⁰ Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.). – С. 177-178.

⁶¹ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана ... – С. 115.

⁶² O'zMA, I-126-fond, 1-ro'uxat, 73-ish, 4-varaq.

⁶³ Абдувахобова М.Р. Кушбеги архивида тарихий топонимлар ва Бухоро амирлигининг маъмурий-худудий тизими (илмий рисола). – Тошкент: Тошкент Давлат шарқшунослик институти, 2006. – Б. 8-9.

⁶⁴ Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.). – С. 285.

⁶⁵ Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шеваларининг лексик қатламлари. – Тошкент: "Abu-Matbuot konsalt", 2016. – Б. 14-22; Ўша муаллиф: Бухоро ўғуз шевалари лексикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент: ТошДЎТАУ: 2018. – Б. 15-24.

Qadimdan bir necha urug‘lardan tashkil topgan turkman aholi esa O‘rta Amudaryo aholisining asosiy qismini tashkil etib, bu hududda turkmanlarning *qarqin, muqri, saqar, chandir, chavdur, ersari, eshakchi, xidir-eli, ali-eli, sarig‘, qizil-oyoq, tuyachi, xalach, sayat, xatap, bakavul* kabi urug‘lari⁶⁶ o‘zlarining qishloq va ovullariga ega bo‘lishgan.

Buxoro amirligiga qarashli Zarafshon, Qashqadaryo, Surxon-Sherobod vohalarida, shuningdek, Sharqiy Buxoroda (Janubiy Tojikiston)da “Qarluq” nomli etnotoponimlar tarqalgan⁶⁷. Buxoro vohasining Olot, G‘ijduvon, Buxoro, Jondor, Kogon tumanlarida Qarluq, Qarluqo, Qarluqon, Qalliko qishloqlari, Nurota va Samarqand viloyatida Qarluq, Qarshi bekligida Qarluq, Qarluq-xona, Xo‘ja-Qarluq kabi qishloqlari aholisi o‘zlarini qarluq urug‘i mansublari, deb bilishgan.

Xullas, Buxoro amirligiga qarashli Amudaryoning o‘rta oqimining o‘ng va chap sohillarida joylashgan Chahor-juy (Chorjuy), Usti, Burdaliq, Karki va Kelif viloyatlaridagi bir necha aholi maskanlari – amloklik, “bekcha”, qishloq, mavze va “jamoal”lar aholisi asosan turkman va o‘zbeklardan iborat bo‘lib, ular orasida tig‘iz etnomadaniy jarayonlar yuz bergan. So‘nggi o‘rta asrlarda bir qator turkman va ko‘chmanchi o‘zbek urug‘larining o‘troqlashuvi natijasida bu hududlarda yangi-yangi aholi maskanlari qad ko‘targan.

XULOSA

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida etnik jarayonlarning tarixiy-geografik tahlili natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. Bu davrda Buxoro amirligi hududi oldingi asrlarga nisbatan birmuncha qisqarib ketgan bo‘lib, amirlik hududi Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Janubiy Tojikiston, Chorjuy viloyatlari va yana bir necha tumanlarni o‘z ichiga olib, mahalliy aholini asosan o‘zbek, tojik va turkman, qisman esa qozoq va qoraqalpoqlar tashkil etgan. Shuningdek, amirlikning janubi-sharqiy chekkalarida – Badaxshon tog‘lari daralarida o‘nlab sharqiy eroniy tilli aholi yashagan. O‘zbek va tojiklar asosan o‘troq aholi bo‘lib, shahar va qishloqlarda yashagan bo‘lsalar, turkman, qozoq va qoraqalpoqlar, o‘zbeklarning chorvador qismi dasht va cho‘llarda yashab, ularning turmush tarzida ko‘chmanchilik va yarim ko‘chmani hayot tarzi ustuvor bo‘lgan. Amirlik aholisi orasida ayniqsa o‘zbek va tojiklar orasida nikoh aloqalari keng tarqalib, bu ularning o‘zaro qo‘shni va aralash yashashlari, madaniyat va kasb-kor yaqinligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu bilan birga, amirlikning ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholisi, shu jumladan, qipchoq o‘zbeklarida qozoq va qoraqalpoqlar bilan aralash nikohlar birmuncha ko‘p kuzatilgan.

2. Amirlikdagi aholining yarmidan ko‘prog‘ini o‘zbeklar tashkil etib, ular asosan Zarafshon vodiysida, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasida istiqomat qilganlar. Jami aholining 30% ini tashkil etgan tojiklar qisman Buxoro shaharlarida, asosan amirlikning tog‘li hududi bo‘lgan Sharqiy Buxoroda istiqomat qilganlar.

⁶⁶ Атаниязов С. Этнонимы в туркменском языке. – Ашгабат: Ылым, 1994. – С. 30-38, 44-55.

⁶⁷ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана... – С. 79-83; Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси... – Б. 359-360.

Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, Chorjo'y va Karkida yashovchi turkmanlar esa mamlakat aholisining 10% ini tashkil etgan. Bundan tashqari, Karmana va Nurotada o'zbek qabilalari bilan bir qatorda qozoqlar, Buxoro shahrida ko'plab o'zbek va tojiklar aholining ko'pchiligini tashkil etgan.

3. Buxoro amirligida o'zbek va tojik tillari asosiy rasmiy va so'zlashuv tillari vazifasini bajargan. Buning negizida amirlikka asos solgan mang'it urug'ining o'zbeklarga borib taqalishi yotsa, tojik tili mintaqada ko'p asrlardan beri rasmiy til vazifasini bajarib kelgani uchun bu an'ana amirlik davrida ham davom etgan. Bundan tashqari, har ikkala xalq vakillarining Buxoro amirligidagi yirik shaharlarning asosiy aholisini tashkil etishi ham asosiy omillardan biri bo'lgan.

4. Buxoro amirligidagi joy nomlarining ko'pchiligini o'zbek urug'lari (mang'it, nayman, saroy, qipchoq, bahrin, batosh, qarluq, qatag'on, qo'ng'iroq, xitoy, burqut, barlos, durman va b.) bilan bog'liq bo'lib, bugungi kungacha saqlanib qolgan qishloq, ovul va mahalla nomlarining ko'pchiligi ushbu etnonimlarga borib taqaladi. Ushbu aholi manzillarining bunday nomlanishida o'zbek urug'larining Buxoro amirligi davrida yoppasiga o'troqlashuvga o'ta boshlashi bilan ochiqlanadi.

5. XX asr boshlarida Buxoro amirligi vohasi aholisining etnik tarkibi va etnotoponimlar masalasini o'rganishda Zarafshon vodiysi muhim o'rin tutadi. Shu bilan birgalikda, yuqorida aytib o'tilgan sabablar: mahalliy aholining etnik mansublik masalasini turlicha talqin qilishi, ikki tillilik, ba'zi joylarda elchi, sayyoh, sharqshunos kabi tadqiqotchilar to'plagan ma'lumotlarning biri-ikkinchisiga to'g'ri kelmasligi, hatto mutlaqo teskari bo'lishi kabi holatlar ham yuz berganligini aytib o'tish kerak. Ayrim joylarda aholi o'ziga berilgan "millatingiz" degan savolga ko'pincha "musulmon" deb javob berishgan, ayrim joylarda esa bunday savolga o'zlari yashaydigan joy nomi bilan "samarqandlik", "buxorolik" deb javob qaytarishlari, ba'zan esa o'zlari so'zlashadigan til xususiyatidan kelib chiqib emas, qo'shni aholi maskanlari aholisi tomonidan kasb-hunari asosida qo'yilgan nom (*mas.* "tojik")ga tayanib etnik mansubliklarini e'tirof etishlari kabi hollar ancha-muncha uchratilgan.

6. Buxoro amirligi davridagi etnik jarayonlar O'rta Osiyoning bugungi etnik qiyofasi shakllanishida o'ziga xos davr sifatida mintaqa xalqlari tarixida alohida iz qoldirgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida etnik jarayonlarning tarixiy-geografik tahlillari asosida quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Buxoro amirligining etnik tarkibi va turli lahjalarda so'zlashuvchi urug'larning etnolingvistik lug'atini yaratish;

2. Buxoro, Termiz, Qarshi shaharlaridagi viloyat tarixi va madaniyati muzeylarini tarixiy-geografik masalalarga bag'ishlangan eksponentlar bilan boyitib borish;

3. Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining OAVlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kechgan ijtimoiy, tarixiy-madaniy jarayonlarni uzluksiz yoritib borish;

4. O'z davrida Buxoro amirligi davrida tarkibida bo'lgan Tojikiston va Turkmaniston respublikalari OTMlarining O'zbekiston Respublikasi OTMlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 ПРИ КАРШИНСКОМ**

**ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ДЖИЗАКСКИЙ ФИЛИАЛ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА
УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

РАХМАТОВ ХАЙРУЛЛА БАЗАРБАЕВИЧ

**ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭТНИЧЕСКИХ
ПРОЦЕССОВ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ
XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
историческим наукам**

Карши – 2023

Тема диссертации доктора философии по историческим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под № В.2022.2.PhD/Tar1125.

Диссертация выполнена в Джизакском филиале Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека.
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.qarshidu.uz) и в информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Эшов Баходир Джураевич
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Худойкулов Тулкин Дустбабаевич
доктор исторических наук, доцент

Рахмонов Фахриддин Шоймарданович
доктор исторических наук, доцент


Ведущая организация:


Гулистанский государственный университет


Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению научных степеней PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 при Каршинском государственном университете «21» 10 2023 года в 11:00 час (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (0 375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.ru). Каршинском государственном университете.

С диссертацией можно познакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована под № 207). (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (0 375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.ru).

Автореферат диссертации распространен « 3 » 10 2023 года
(вхт реестра под № 22 от « 3 » 10 2023 года).


Г.Э.Муминова
Заместитель председателя Научного совета
по присуждению научных степеней,
д.и.н., профессор


Н.Н.Ражабова
Секретарь Научного совета
по присуждению научных степеней,
к.и.н., доцент


Ю.А.Эргашева
Председатель Научного семинара
при Научном совете
по присуждению научных степеней,
д.и.н., профессор



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы. В настоящее время в условиях глобализации населения Земли наблюдаются стремительное увеличение количества и изменение этнического состава населения. Актуальной задачей становится исследование такого предмета, как расширение исторической географии размещения населения, влияние этнического состава населения на общественные отношения. Особенно важное практическое значение в мировой историографии приобретают ответы на такие вопросы, как этническое самосознание населения, проживающего в разных регионах мира, определение состава этносов, говорящих на разных диалектах, решение проблем социальных и культурных отношений между разными этносами, проживающими в отдельных регионах.

В ведущих научных центрах мира, в том числе в научных учреждениях ряда таких стран, как США, Китай, Россия, Франция, Германия, Польша, проводятся эффективные исследования историко-культурных процессов, протекавших в Бухарском эмирате, и которые, как известно, оставили важный след в истории Центральной Азии. Их результатом следует назвать получение ценной информации, имеющей отношение к истории и культуре эмирата. Тем не менее, исследование вопросов историко-географического анализа этнических процессов в Бухарском эмирате в конце XIX – начале XX вв. по-прежнему имеет большое значение.

Ввиду того, что в последние годы в Узбекистане отношение к собственному культурному наследию коренным образом изменилось, актуальной задачей становится более глубокое изучение истории и культуры историко-культурных регионов страны в периоды древности и средневековья. В частности, важным представляется анализ в историко-географическом контексте этнических процессов, происходивших в исторических, политико-административных единицах Бухарского эмирата в период позднего средневековья.

Сегодня эти вопросы выдвигаются в повестку дня как основные задачи исторической науки, при их решении достигаются определенные результаты. Ведь, как отмечал Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев: «...значительные результаты достигаются в общественных и гуманитарных науках: - истории, археологии, востоковедении, культурном наследии народов Узбекистана... и в других сферах тоже»¹. Но до сих пор история этих вопросов не изучалась как отдельный объект исследования, что и определяет актуальность необходимости изучения данной проблемы с научной точки зрения.

Настоящая диссертация служит в определенной степени практической реализации задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года, №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Указе Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года, №УП-6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года»,

¹ Мирзиёев Ш.М Илм-фан ютуқлари Ватанимиз равнақиға хизмат қилсин// Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: “O‘zbekiston” NMJU, 2018. – Б. 169.

Постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 июня 2021 года, №ПП-5150 «О мерах по организации деятельности Агентства культурного наследия при Министерстве туризма и спорта Республики Узбекистан, а также инновационному развитию сферы», а также в других нормативно-правовых актах, имеющих отношение к рассматриваемой сфере.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование проводилось в соответствии с таким направлением развития науки и технологий, как I. «Формирование системы социальных, правовых, экономических, культурных, духовно-просветительских, инновационных идей информационного общества и демократического государства и путей их реализации».

Уровень изученности проблем². Анализ литературных источников, имеющихся в исследуемой проблеме, показал, что этот вопрос не полностью освещен как самостоятельный объект, но некоторые аспекты темы нашли отражение в исторической литературе, и их можно периодически разделить на следующие четыре основные группы:

1. Публикации, изданные в XIX и начале XX вв.
2. Литература советского периода.
3. Исследования периода независимости.
4. СНГ и зарубежье.

Следует отметить, что эти литературные источники различаются с научно-методической и концептуальной точек зрения.

Некоторые сведения об историко-географических аспектах этнических процессов Бухарского эмирата в начале XIX-XX вв. нашли отражение в трудах Н.В.Ханикова, А.Д.Гребенкина, А.П.Хорошхина, Ю.Скайлера и других, которые были представителями администрации Российской империи. Сведения о хозяйственной и культурной жизни жителей эмирата в основном изложены в трудах некоторых русских востоковедов³.

Следует отдельно отметить, что земледельческие оазисы, бескрайние степи, пустыни и песчаные барханы, расположенные на просторах между двумя великими реками Амударьей и Сырдарьей, перемежаются с горными массивами. Процесс расселения кочевого и полукочевого населения в оазисах и смешения его с оседло-земледельческим населением, начавшийся много веков назад, ускорился в конце XIX – начале XX вв.⁴.

А.П.Хорошхин, русский исследователь, побывавший в северной части Нуратинских гор, пишет: «...в ущельях Нуратинских гор много деревень и зимовок. Узбеки с зимовок живут на пастбищах с весны до поздней осени и занимаются кочевым скотоводством. Пастух, живущий в Кокбулаке и в

² Matn ichida mavzuga doir u yoki bu darajada tadqiqot olib borgan mualliflar asarlariga batafsil murojaat etganimiz uchun bu yerda qisqacha ma'lumot berishni lozim topdik -muallif.

³ Гребенкин А.Д. Таджики. Узбеки. / Русский Туркестан. Сборник. – М., 1873. – 120 с.; Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб, 1843. – 192 с.; Хорошхин А.П. Сборник статей касающихся Туркестанского края. СПб, 1876. – 304 с.; Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Гулжага саёҳат кайдлари. З.Саидбобоев таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 334 б.

⁴ Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. 1-жилд. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарк, 2000. – 466 б.

соседнем с ним селе Богдонотанской волости, рассказал нам, что с 25 марта, если пастбищ не хватало, они угоняли скот в горы. Узбеки-карамангиты, жители села Нурек, занимаются земледелием, садоводством, а также отчасти скотоводством. Зерно и шерсть продаются в Джизаке. Жители Нурека считают, что они прибыли из Туркестана. Дорога из Нурека в Учму, протяженностью 26 километров, неблагоустроенная, местами проходит по скалам. Её на протяжении от Янгикишлака до Богдонота пересекают Осмонсай, Илончисай и Кулбасай. Из ущелья видны деревни, названные в честь садов и ручьев. В Янгикишлаке живут мангыты, соплеменники бухарского эмира. Если посмотреть с этого места на север, то можно увидеть Тузкон. В селе Учма есть узбеки-найманы. Жители сел Балабан, Сасик, Сафарота, Камиш и Саримсокли относятся к найманам, алтыбекам, узбекам-туркменам. В кишлаке Саримсокли, кроме алтыбеков, половина села состоит из хаджи. Говорят, что они пришли сюда из Сафарата. Жители сел Фориш, Асраф, Синтоб говорят на таджикском языке. Кази сказал, что жители хоть и говорят по-таджикски, но считают себя выходцами из племени сарай. Согласно легенде, они переселились из города Ичкали-Зори. Кази сказал, что жители Синтоба построили каменную крепость около 40 лет назад, чтобы отразить нападение войск Абдулгаффара, командующего сорока сотнями бека Уратепы»⁵.

К югу от Кызылкумов пустыни и степи перемежаются оазисами, основными жителями которых были полукочевые узбекские роды, выходцы из Дашт-Кыпчака. В конце XIX – начале XX веков туркмены, казахи, киргизы расселились среди преобладающего населения – узбеков наподобие островков во внутренних степных пустынях между двух рек. По этой причине все эти народы находились на той или иной стадии смешения с узбеками. В этот процесс были вовлечены: туркмены – на западе, казахи – на севере, киргизы и таджики, уйгуры – на востоке.

